

Telekommunikatsiya xizmatlari koʻrsatish shartnomalari

Har qanday shartnoma taraflarning oʻzaro kelishuvi bilan tegishli turdagi shartnomani tartibga soluvchi maxsus qonunchilik hujjatida belgilangan qoidalar hamda Fuqarolik kodeksidagi majburiyatlarga asosan bekor qilinadi.

Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan majburiyatlarning bekor boʻlishining normal va normal boʻlmagan asoslari telekommunikatsiya xizmatlarini koʻrsatish shartnomasiga ham xosdir.

Xususan, majburiyatning bajarilishi bilan bekor boʻlishi (Fuqarolik kodeksining 341-moddasi) holati telekommunikatsiya shartnomasi uchun ham xosdir. Masalan, operator va abonent oʻrtasida tuzilgan shartnomaga binoan abonent telekommunikatsiya xizmatlari haqini har oy uchun oldindan toʻlasa unga xizmat koʻrsatiladi, aks holda shartnoma bekor boʻladi.

Shunga qaramasdan, Fuqarolik kodeksi yoki normativ-huquqiy hujjatlar fuqarolik-huquqiy shartnomalarni bekor qilish tushunchasining ta’rifini bermaydi. Fuqarolik-huquqiy shartnomalarni bekor qilish tushunchasini fuqarolik-huquqiy majburiyatlarni bekor qilish tushunchasidan ajratish mezoni ishlab chiqilmagan. Bu fuqarolik-huquqiy shartnomalarini bekor qilishning huquqiy tushunchasi qonunchilikda yetarlicha ishlab chiqilmaganligini koʻrsatadi. Ushbu holat turli huquqiy sabablarga koʻra bekor qilingan shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish uchun huquqiy ta’minotning yetishmasligi muammosini aks ettiradi.

Amaldagi qonunchilik tahlilidan kelib chiqib, shartnomalarni oʻzgartirish va bekor qilishning quyidagi asoslarini sanab koʻrsatish mumkin:

1) shartnoma taraflarining oʻzaro kelishuvi;
2) bir tarafning shartnoma shartlarini buzishi;
3) vaziyatning jiddiy oʻzgarishi;
4) hukumat tomonidan e'lon qilingan majburiyatlar ijrosini kechiktirish yoki bekor qilish toʻgʻrisidagi kelishuv;
5) voz kechish haqini toʻlash va qonun hujjatlarida koʻzda tutilgan boshqa holatlar.

Bu oʻrinda shartnomalarni oʻzgartirish va bekor qilishning toʻliq roʻyxatini sanab oʻtish yoki qonunchilikda belgilash toʻgʻri yondashuv boʻlmasligini, shartnomalarning oʻzgarishi va bekor qilinishiga asos boʻluvchi yangi holatlar yuzaga kelishi mumkinligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Shartnomani kelishuv asosida oʻzgartirish va bekor qilish koʻproq shartnomaviy munosabatlarning tabiatiga toʻgʻri keladigan holatdir. Sababi taraflar ixtiyorlari asosida shartnoma tuzadilar va shartnomadagi majburiyatlarni oʻzgartirmoqchi yoki bekor qilmoqchi boʻlishsa, oʻzaro kelishuv asosida amalga oshiradilar. Demak, taraflardan birining xohishiga koʻra, bir tomonlama ravishda shartnoma shartlarini oʻzgartirish yoki bekor qilishga faqat qonun hujjatlariga yoki shartnomada nazarda tutilgan hollardagina yoʻl qoʻyiladi. Bu shartnoma ishtirokchilaridan birining gʻayrihuquqiy harakatlari uchun oʻziga xos ta'sir chorasi (sanksiya) sifatida ham qaralishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, telekommunikatsiya xizmatlari koʻrsatish shartnomasining bekor boʻlishiga oid maxsus qoidalar Telekommunikatsiya qoidalarida nazarda tutilgan.

Jumladan, mazkur qoidalarning 256-bandida telekommunikatsiya xizmatlari koʻrsatish shartnomasini bekor qilishning quyidagi asoslari keltirilgan:

1) abonentning tashabbusi bilan istalgan vaqtda;
2) operatorning (provayderning, eshittiruvchining) tashabbusi boʻyicha, ushbu qoidalar yoki shartnoma shartlarida belgilangan talablar abonent tomonidan buzilganda;
3) abonent – jismoniy shaxs vafot etganda yoki abonent – yuridik shaxs tugatilgan holda, tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan taqdirda;
4) abonentning shaxsiy hisobidagi mablagʻ tugagan kundan boshlab 60 kundan koʻp vaqt oʻtgandan keyin;
5) abonentning mobil raqami boshqa operator (provayder) tarmogʻiga koʻchib oʻtganida;
6) shartnomada yoki qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Telekommunikatsiya xizmatlarini koʻrsatish shartnomasini abonentning tashabbusi bilan istalgan paytda bekor boʻlishi mazkur shartnomaning ommaviy shartnoma ekanligidan ham kelib chiqadi. Chunki telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish istagidagi mijozlar sonining koʻpligi, axborot almashishning hayotiy zaruratga aylanib borayotganligi operator va provayder uchun mijoz va abonent muammosini yuzaga keltirmaydi. Abonent esa istalgan paytda operator va provayderni oʻzgartirishga haqlidir.

Amaliyot shuni koʻrsatadiki, deyarli har ikkinchi imzolangan shartnoma uni amalga oshirish bosqichida buziladi. Ba'zida tomonlar munosabatlarini norasmiy ravishda hal qilishlari mumkinligini bilib, bunga e'tibor bermaydilar. Natijada tomonlarning munosabatlari boshi berk koʻchaga kirib qoladi.

Shartnomaviy tartibga solish erkinligi prinsipi shartnoma taraflariga shartnomadan bir tomonlama "chiqib ketish" boʻyicha huquqlarni belgilashga imkon beradi.

Shartnoma taraflari quyidagilarni nazarda tutishlari mumkin:

– ularning har biri bir xil sharoitda yoki har biri har xil sharoitda va teng ravishda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega;

– taraflar (yoki ulardan biri) boshqa taraf tomonidan shartnoma buzilishi borligi yoki yo'qligidan, shuningdek har qanday boshqa subyektiv yoki obyektiv holatlar mavjudligi yoki yo'qligidan qat'i nazar har qanday vaqtda shartnomani bekor qilish huquqiga ega;

– taraflar, shuningdek, qonunda belgilangan shartnomani bekor qilish qoidalarini o'zgartirishi yoki aniqlashtirishlari mumkin.

Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish shartnomasida quyidagi qoida mavjud edi: "operator yoki provayderning aybi yoki ularning jadvaldan kechikishi (yoki qo'shimcha shartnomalarda ko'rsatilgan muddatlar) tufayli telekommunikatsiya tarmoqlariga abonent yoki foydalanuvchini ulash kech boshlangan taqdirda, buyurtmachi ijrochini ogohlantiradi. Agar belgilangan muddat ichida sezilarli o'zgarishlarga erishilmasa, mijoz shartnomani bir tomonlama bekor qilish va unga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli".

Tajriba shuni ko'rsatadiki, muayyan sharoitlarda shartnomani bir tomonlama bekor qilish ikkinchi taraf tomonidan majburiyatlarning bajarilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shartnomani imzolashda kam odam shartnomani bekor qilish asoslari va tartibi kabi o'ziga xos bo'lmagan shartlarga e'tibor beradi. Va faqat bir necha kun yoki hafta ichida shartnoma buzilishi bartaraf etilmagan taqdirda, shartnoma bir tomonlama bekor qilinadi, kontragentning shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqini to'liq baholashi mumkinligi to'g'risida xabar olgandan keyingina bekor qilish asosli hisoblanadi. Shuning uchun har bir shartnoma matniga shartnomani bir tomonlama bekor qilish shartini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini operatorning tashabbusi bilan bekor qilish uchun asos abonentning shartnoma shartlarini buzish sanaladi. Bu shart Fuqarolik kodeksining 382-moddasi qoidalaridan ham anglashiladi. Mazkur moddaning ikkinchi qismiga ko'ra, bir tarafning shartnoma shartlarini jiddiy buzishi ikkinchi tarafga shartnomani bekor qilish uchun sudga murojaat qilish huquqini beradi.

Jiddiy buzish masalasini tahlil qilar ekan, J.Babayev quyidagilarni ta'kidlaydi: "Buzishning jiddiyligiga baho berishda sud buzilishning salbiy oqibati uchun ahamiyatli bo'lgan muayyan omillarni; buzilish darajasi va o'rnini; qarzdorga nisbatan ishonchning yo'qotilishini; qarzdorning shartnomani saqlab qolishga bo'lgan asosli manfaatdorligi mavjud yoki mavjud emasligini, qarzdorning nohalolligini inobatga olishi lozim bo'ladi. Bunda sudning asosli va adolatli yakuniy qarorida yuqoridagi barcha omillar va ularning ko'p qirraliligi aks etishi zarur".

Y. Rahimova sud shartnomaning jiddiy ravishda buzilishi munosabati bilan uni o'zgartirish va bekor qilishda quyidagi holatlarni hisobga olishini yozadi:

1) shartnomaning buzilishi xususiyatlari;

2) bajarilgan va bajarilmagan majburiyatlar nisbati;

3) huquqbuzarlik xususiyatidan kelib chiqib shartnomani saqlab qolishning maqsadga muvofiqligi;

4) sud qarorining adolatlilik va oqilonalik tamoyillariga muvofiqligi.

Ayrim mutaxassislarning fikricha, har qanday holatda ham shartnoma buzilishining jiddiyligi sud tomonidan aniqlanadi. Shartnomaning buzilishi jiddiy deb e'tirof etilishi muayyan oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Fikrimizcha, iste'molchi ishtirokidagi shartnomalarda, shuningdek ommaviy shartnomalar shartlarining buzilishidan iqtisodiy jihatlarni izlash o'rinli bo'lmaydi. Gap shundaki, abonent shartnomalarida muhim jihat abonentning barcha uchun bir xil belgilangan shartlarga rioya qilishi, ijtimoiy manfaatlarga amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, telekommunikatsiya tarmog'ida axloq qoidalariga rioya etmaslik, haqoratli yoki kamsituvchi ma'lumotlarni tarqatmaslik yoki qonunchilikda belgilangan o'zga ijtimoiy talablarga rioya etmaslik ham operator tomonidan shartnomani bir tomonlama bekor qilish uchun asos bo'lishi mumkin.

Telekommunikatsiya qoidalarida shartnomani bekor qilish uchun asoslarni aynan nimalar tashkil qilishi aniq belgilanmagan. Shunga qaramasdan, qoidalarda abonentning muayyan shartlarni buzi-

shi xizmat koʻrsatishni toʻxtatib turish uchun asos boʻlishi belgilangan holatlar mavjud. Masalan, qoidalarning 276-bandi b kichik bandiga koʻra "abonent tomonidan operatorga (provayderga) tegishli telekommunikatsiya uskunasi normal ishlashining buzilishiga olib kelishi mumkin boʻlgan abonent qurilmasini ekspluatatsiya qilish qoidalari buzilganda" operator abonent qurilmasini telefon aloqa tarmogʻidan vaqtincha uzib qoʻyish yoʻli bilan abonentning telefon aloqa tarmogʻidan foydalana olishini toʻxtatib turishga haqli hisoblanadi.

Bundan tashqari, qoidalarning 319-bandida abonent va foydalanuvchilarning majburiyatlari sanab oʻtilgan boʻlib, bu majburiyatlarning bajarilmasligi ham operator (provayder)ning shartnomani bir tomonlama bekor qilishi uchun asos hisoblanadi. Jumladan, davlat sirlari, tijorat sirlariga oid ma'lumotlarni tarmoqda tarqatmaslik bilan birga, davlat tuzumiga qarshi, buzgʻunchilik, pornografiya ma'lumotlarini tarqatmaslik, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini buzadigan axborotlarni e'lon qilmaslik kabi qoidalar belgilangan. Qoida tariqasida bu holatlar shartnomaviy munosabatlarning predmeti hisoblanmaydi va ommaviy tartibotga oid talablar hisoblanadi. Bu talablarga rioya etmaslik esa amaldagi qonunchilikda belgilangan javobgarlik bilan birga, abonent yoki foydalanuvchi bilan tuzilgan telekommunikatsiya xizmatlarini koʻrsatish shartnomasini bekor qilish uchun asos ham hisoblanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlarini koʻrsatish shartnomasini bekor qilishda operator (provayder) ning bir tomonlama harakatiga baho berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda majburiyatni bajarishni toʻxtatib turish masalasiga ham e'tibor qaratish lozim. A. Karapetovning fikricha, majburiyatlarni bajarishni bir tomonlama toʻxtatib turish huquqi boshqa tarafning majburiyatlarni bajarishini ta'minlash usullaridan biri hisoblanadi.

Fuqarolik kodeksida majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yoʻl qoʻymaslik prinsipi belgilangan. Unga koʻra "majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va uning shartlarini bir tomonlama oʻzgartirishga yoʻl qoʻyilmaydi, qonunchilik hujjatlari yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno" (Fuqarolik kodeksining 237-moddasi).

Qonun chiqaruvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanadigan shaxslar ishtirok etadigan munosabatlarni ta'kidlaydi. Ularning faoliyati qaror qabul qilishda mustaqillik va tavakkalchilikka asoslangani sababli qonun chiqaruvchi ularga shartnomani bajarishni rad etish toʻgʻrisidagi qoidalarni shartnomada belgilashga imkon beradi. Ta'kidlash lozim, Fuqarolik kodeksi 237-moddasidagi qoida iqtisodiy talablar va tadbirkorlikda shakllangan yangi odatlarga toʻliq javob bermaydi. Gap shundaki, majburiyatlar bajarilishinidan bir tomonlama bosh tortish tadbirkorlik muomalasida oʻziga xos oʻrin tutadi. Majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish asosining qonun yoki shartnomada belgilanishi unda ishtirok etuvchi subyektlarning maqomi bilan bogʻliq boʻlishi lozim.

Majburiyat-huquqiy munosabat ishtirokchilari yoki ulardan bittasi tadbirkorlik faoliyatining subyekti boʻlmagan hollarda esa majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish asosining shartnomada belgilanishini nazarda tutish toʻgʻri boʻlmaydi. Bu vaziyatda bir tarafning huquqiy bilimi yetarli boʻlmasligidan shartnomaga noqulay shartlar kiritilishi uchun yoʻl ochilishi mumkin. Shu sababli taraflardan biri tadbirkorlik subyekti boʻlmagan majburiyatlardan bir tomonlama bosh tortish faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda mumkinligi qat'iy belgilanishi lozim. Bu holat ayniqsa taraflardan biri iste'molchi boʻlgan shartnomaviy munosabatlarda yaqqol koʻzga tashlanadi. Xususan, telekommunikatsiya xizmatlarini koʻrsatish shartnomalarida ham abonent oldidagi majburiyatdan operator (provayder)ning bir tomonlama bosh tortishiga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda yoʻl qoʻyilishi lozim. Biroq qoidalarning 256-bandida operator (provayder)ning tashabbusi bilan shartnomada belgilangan asoslarga koʻra shartnomani bekor qilish mumkinligi belgilangan. Fikrimizcha, bu qoida iste'molchilarning huquqlariga zid. Shu munosabat bilan Fuqarolik kodeksining 237-moddasini quyidagi tahrirdagi ikkinchi-toʻrtinchi qismlar bilan toʻldirish va amaldagi tahrirda "yoki shartnomada" soʻzlarini chiqarib tashlash maqsadga muvofiq boʻladi:

"Tadbirkorlik faoliyati taraflarining barchasi tomonidan amalga oshirilishi bilan bogʻliq boʻlgan majburiyat shartlarini bir tomonlama oʻzgartirishga yoki ushbu majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga ushbu kodeksda, boshqa qonunlarda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollarda yoʻl qoʻyiladi.

Agar majburiyatning bajarilishi uning ayrim ishtirokchilari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lsa, uning shartlarini bir tomonlama o‘zgartirish yoki majburiyatni bajarishdan bosh tortish huquqi faqat tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirmayotgan tarafga berilishi mumkin, qonunda boshqa tarafga bunday huquqni berish imkoniyati nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyat shartlarini bir tomonlama o‘zgartirish yoki majburiyatni bajarishdan bir tomonlama voz kechish haqidagi ushbu kodeksda, qonun yoki shartnomada nazarda tutilgan huquqni majburiyatning boshqa tarafiga ma’lum miqdordagi pulni to‘lash sharti bilan amalga oshirish mumkinligi taraflar o‘rtasidagi kelishuvda belgilab qo‘yilishi mumkin”.

Bundan tashqari, qoidalarning 256-bandi uchinchi xatboshisidan “va/yoki shartnoma shartlarida” degan so‘zlarni chiqarib tashlash hamda shartnomadan bir tomonlama bosh tortish asoslarini tegishli o‘rinlarda belgilash lozimdir. Chunki shartnomadan bir tomonlama bosh tortish asosini telekommunikatsiya shartlarida belgilash mazkur huquqiy munosabatning zaif tomoni – abonentning huquqlarini to‘liq ta’minlashga to‘sqinlik qiladi. Operator(provayder)ga iste’molchi manfaatlariga zid shartlarni kiritish imkonini beradi.

Foydalanuvchi tadbirkorlik subyekti bo‘lganda shartnomani bekor qilish shartnomaning o‘zida belgilanishi mumkin. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida tuziladigan shartnomalarni bekor qilishda taraflar ko‘pchilik bo‘lganda, shartnomani bekor qilish shartlarini umumiy ravishda kelishib belgilashlariga yo‘l qo‘yilishi zarur.

Fikrimizcha, bu qoida Fuqarolik kodeksining 382-moddasi ikkinchi qismida quyidagi tahrirda belgilanishi lozim:

“Bajarilishi barcha taraflar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p taraflama shartnomada, unda ishtirok etuvchi barcha taraflar yoki ko‘pchilikning kelishuvi bilan bunday shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish imkoniyati nazarda tutilishi mumkin”.

Bundan tashqari, shartnomadan bir tomonlama bosh tortish masalasi ham amaldagi qonunchilikda ifodasini topmagan. Shartnomadan bir taraflama bosh tortish qoida tariqasida muayyan holatlar va faktlar yuz berganda qo‘llanilishi lozim. Bu faktlar esa qonunchilikda belgilanishi va ular borasida taraflar qanday yo‘l tutishi kerakligi haqidagi qoida nazarda tutilishi maqsadga muvofiq. Fikrimizcha, shartnomadan bir tomonlama bosh tortiga oid qoidalar Fuqarolik kodeksining 382^1-moddasi sifatida kiritilishi va quyidagi mazmunda belgilashi zarur:

“382^1-modda. Shartnomadan bir taraflama bosh tortish

Shartnomadan to‘la yoki qisman bir taraflama bosh tortishga ushbu kodeks, boshqa qonun yoki taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan hollarda yo‘l qo‘yiladi.

Taraflardan biri quyidagi hollarda shartnomadan bosh tortishga haqli:

1) shartnomaga asoslangan majburiyatni bajarish mumkin bo‘lmaganda;

2) bir taraf o‘rnatilgan tartibda bankrot deb topilganda, agar qonunda boshqacha qoida belgilangan bo‘lmasa;

3) shartnoma tuzish uchun asos bo‘lgan davlat organining hujjati o‘zgartirilgan yoki bekor bo‘lganda.

Shartnomadan bir taraflama bosh tortishning boshqa asoslari taraflar o‘rtasida tuzilgan kelishuvda ham belgilab qo‘yilishi mumkin.

Shartnomani bajarishdan bir taraflama bosh tortgan taraf bu haqida boshqa tarafni, agar ushbu kodeks, boshqa qonun yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, kamida bir oy oldin xabardor qilishi kerak.

Bir taraf shartnomani bajarishdan bir taraflama to‘la yoki qisman bosh tortganda shartnoma, agar qonunda yoki shartnomada boshqa muddat belgilangan bo‘lmasa, boshqa taraf xabardor qilingan kundan boshlab bekor qilingan yoki o‘zgartirilgan hisoblanadi”.

Qoidalarning 256-bandi to‘rtinchi xatboshisiga ko‘ra telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasining bekor bo‘lish asoslariga – “abonent – jismoniy shaxsning vafot etishi hamda abonent – yuridik shaxsning tugatilishi va buni tasdiqlovchi hujjatlarning taqdim etilishi” ham kiritilgan. Ma’lumki, huquqiy munosabat, shu jumladan, majburiyat subyektlar o‘rtasida yuzaga keladi. Subyekt “mavjudligining barham topishi esa” huquqiy munosabat bekor bo‘lishiga olib keladi. Bu holat Fuqarolik kodeksining 351 va 352-moddala-

rida nazarda tutilgan. Biroq Fuqarolik kodeksining 351-moddasida fuqaroning vafoti bilan majburiyatning bekor bo‘lishi bir nechta shartlarni nazarda tutadiki, bu shartlar qoidalarning 256-bandida inobatga olinmagan. Xususan, Fuqarolik kodeksining 251-moddasida majburiyat qarzdor va kreditorning shaxsi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgandagina bekor bo‘lishi nazarda tutilgan. Mutaxassislarning fikricha, “fuqaroning vafot etishi bilan bekor bo‘ladigan majburiyatning shaxsiy xususiyati majburiyatning maqsadini, shuningdek unga mushtarak vaziyatlarni hisobga olgan holda aniqlanishi lozim. Agar majburiyat qarzdorning yoki kreditorning shaxsiyati bilan bog‘liq emasligi aniqlansa, bu holda fuqaroning vafoti majburiyatning bekor bo‘lishiga olib kelmaydi”.

Bundan ko‘rinadiki, qoidalarning 256-bandi to‘rtinchi xatboshisiga telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasini abonent – jismoniy shaxsning vafoti yoki yuridik shaxsning tugatilishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki o‘zining mohiyati, xususiyati va yuridik tabiatiga ko‘ra telekommunikatsiya xizmatlari shaxsiy tusdagi munosabatlar jumlasiga kirmaydi. Masalan, tegishli mobil telefon raqami va unga ko‘rsatilayotgan xizmatlar bo‘yicha abonent vafot etsa unga tegishli telefon raqami va xizmatlar paketidan vorislar foydalanishga haqli bo‘lishlari lozim. Bunday holat pulli telefon raqamlari yoki boshqa shunga o‘xshash xizmatlarga ham taalluqlilidir. Bu borada pulli rouming xizmati ko‘rsatishni misol sifatida keltirish mumkin.

Shu munosabat bilan qoidalarning 256-bandi to‘rtinchi xatboshisini chiqarib tashlash o‘rinli bo‘lar edi. Chunki bu qoida yuqorida ta’kidlangandek, Fuqarolik kodeksining 351 va 352-moddasi qoidalariga zid va abonent huquqlarini cheklaydi.

Qoidalarda keltirilgan telekommunikatsiya shartnomasi bekor bo‘lishining navbatdagi asosi “abonentning shaxsiy hisobidagi mablag‘ tugagan kundan boshlab 60 kundan ko‘p vaqt o‘tishi” hisoblanadi. Boshqacha aytganda, abonent shaxsiy hisobini xizmatlar ko‘rsatilishidan oldin to‘lashi lozim. Telekommunikatsiya xizmatini ko‘rsatish haqini oldindan to‘lash usuli barcha operator va provayderlar tomonidan qabul qilingan amaliyot hisoblanadi. To‘langan mablag‘ xizmatlar bahosini qoplash uchun yetarli bo‘lmagan hollarda esa operator xizmat ko‘rsatishni to‘lov amalga oshirilmagunicha to‘xtatib turadi, biroq shartnoma to‘lov to‘lanmagan paytdan boshlab 60 kun mobaynida bekor qilinmaydi.

“Abonentning mobil raqami boshqa operator (provayder) tarmog‘iga ko‘chib o‘tishi” ham telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasining bekor bo‘lishiga asos hisoblanadi. Qoidalarning 296-bandiga ko‘ra, “mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatishda operator (provayder) abonentning operator tarmoqlarida abonent raqamini ko‘chib o‘tish xizmatidan foydalanish huquqiga to‘sqinlik qilmaslikka majbur”. Xuddi shunday xizmat, ya’ni abonent mobil raqamini boshqa operator tarmog‘iga ko‘chib o‘tish xizmati qoidalarning 318-bandida ham nazarda tutilgan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni bildirish mumkin:

telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomaning amal qilish muddati tugashi oqibatlari telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish va qabul qilish qoidalarida nazarda tutilishi kerak, ya’ni ushbu qonun hujjatlarida shartnoma muddati tugashi bilan tomonlarning majburiyatlarini bekor qilish to‘g‘risidagi umumiy qoida belgilanishi lozim.

Bu telekommunikatsiya xizmatlarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular asosan iste’molchiga telekommunikatsiya tarmog‘iga kirish imkoniyati berilishidan iborat bo‘lib, iste’molchi bu haqda faqat oxirgi uskunani ulash orqali bilib olishi mumkin. Binobarin, iste’molchi shartnoma muddati tugagandan so‘ng operator unga telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatishini bilmagan holatlar bo‘lishi mumkin.

Telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish qoidalari operatorga (provayderga) quyidagi huquqlarni beradi:

iste’molchining oxirgi uskunasini uzish; telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatishni to‘xtatish va boshqalar. Telekommunikatsiya xizmatlari sohasidagi faoliyatning ayrim turlari litsenziyalar asosida amalga oshirilishini hisobga olib, "Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida"gi qonunda litsenziyani bekor qilish telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomani bekor qilish uchun asos bo‘lishiga oid qoidani belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Rustam XURSANOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
fuqarolik huquqi kafedrasi dotsenti